



YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilning yanvar-mart oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda - YaHM) hajmi joriy narxlarda 3 955,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 3,9 % ga o'sdi.

2020-yil yanvar-mart oylari bo'yicha aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 2 080,4 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,4 % ga oshdi.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaIMni shakllantirishda Qoraqalpog'iston Respublikasining qo'shgan hissasi 3,6 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHMni ishlab chiqarish

	<i>Mrld. so'm</i>		<i>2019-yil yanvar- martga nisbatan % da</i>
	<i>2019-yil yanvar-mart</i>	<i>2020-yil yanvar-mart</i>	
I. YaHM	3 426,4	3 955,1	103,9
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	3 066,2	3 617,2	103,9
Mahsulotlarga sof soliqlar	360,2	337,9	104,1
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	3 066,2	3 617,2	103,9
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	401,7	481,4	104,3
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	1 395,4	1 599,8	105,0
sanoat	1 143,0	1 304,6	106,1
qurilish	252,4	295,2	100,4
Xizmatlar	1 269,1	1 536,0	102,5
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	195,6	223,0	101,4
tashish va saqlash, axborot va aloqa	229,5	267,1	107,3
boshqa xizmat tarmoqlari	844,0	1 045,9	101,5

Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida o'sish sur'ati - 104,3 % (YaHM tarkibidagi ulushi 13,3 %), sanoatda (qurilishni qo'shgan holda) - 105,0 % (44,3 %) hamda xizmatlar tarmog'ida - 102,5 % (42,4 %) ni tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-mart oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 91,5 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 8,5 % ini tashkil etdi.


Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'ining ulushi 1,2 % punktga kamaydi va hisobot davrida 44,3 % ni tashkil etdi. Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 0,2 % punktga oshdi va 13,3 % ga yetdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 2020-yilning yanvar-mart oylarida 42,4 % ni tashkil etdi va 2019-yilning mos davri (41,4 %) bilan taqqoslaganda 1,0 % punktga oshdi.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo`yicha tarkibi
(jamiga nisbatan % da)

2019-yil yanvar-mart



2020-yil yanvar-mart



- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati
- Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi
- Sanoat (qurilishni qo`shgan holda)
- Xizmatlar


Savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 6,2 % ni (2019 yil yanvar-mart - 6,4 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 7,4 % ni (7,5 %), xizmat ko`rsatuvchi boshqa tarmoqlar 28,8 % ni (27,5 %) tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining yalpi qo`shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan % da)

2019-yil yanvar-mart



2020-yil yanvar-mart



**Statistika faoliyatini tashkil etish va yig`ma
axborot-tahliliy ishlar bo'limi**

Tel.: (0-361) 222-74-58;

(0-371) 230-82-03